

MUSTAQILLIK YILLARIDAN KEYIN OLIY TALIMDA O'ZGARISHLAR

G'iyodiddinova Mahliyo

Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Mahliyo778899@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11173161>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi mustaqillik yillaridan keyingi Oliy ta'lim tizimi tahlil qilingan, shuningdek, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish, ta'limga yangicha yondashuv va pedagogik texnologiyalarni qo'llash sabablari aniqlangan.

Tayanch so'zlar: Oliy ta'lim tizimi, davlat, yoshlar, islohot, qonun, ta'lim sifati, mustaqillik.

Kirish. Bugun O'zbekiston barcha sohalarda tarixan qisqa muddat ichida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Mamlakatimiz o'zining mustahkam taraqqiyot yo'lidan dadil odimlab bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-sonli qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi.

O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10- 12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqarorrivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limgayo'naltirilishi zarur bo'lgan investisiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

Oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, talabalarning yashash sharoiti hamda ijtimoiy-maishiy ob'ektlar faoliyatini yaxshilash, oliy o'quv yurtlari hududlarini obodonlashtirish, jumladan, poytaxtimizdagi "Yoshlik" talabalar shaharchasida joylashgan talabalar turar-joylarini tubdan ta'mirlash bo'yicha ham keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining 2011 yil 20 mayda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifati tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim muassasalari faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etish, ularni zamonaviy darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy laboratoriyalarbilanta'minlashdamuhim dasturi amal bo'lmoqda.

O'zbekistonda Oliy ta'lim "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" ga asoslangan ilg'or yo'nalishlardan biri sifatida tasniflanadi. Ushbu tajriba empirik va nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'rganish va puxta tahlil qilish, pirovardida, mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilishga, ushbu sohadagi ilmiy faoliyatni tartibga solishga imkon beradi. Albatta, boshqa mamlakatlar ta'limiy qadriyatlarini, pedagogik tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimiga

to'liq tatbiq etish imkoni yo'q. Har bir millatning o'z mentaliteti mavjud bo'lib, u umumiy ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi, ta'lim sohasidagi integratsiyaning global tendensiyalari tufayli bunday tadqiqotlar turli millatlarning bir-birini yanada yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarning aksariyati umumiy, global xarakterga ega va dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir qiladi.

Zamonaviy pedagogik tushunchalar qanday paydo bo'lganligini tushunish uchun O'zbekistonning pedagogik tajribasiga murojaat qilish kerak. Hatto o'tgan asrda ham o'qituvchilar va olimlarning qarashlarida o'qitishda insonning individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligi haqida fikr yuritilgan. Demak, "shaxsga yo'naltirilgan pedagogika" asoschilaridan biri Ugo Gaudig (1860-1923) tarbiyalashda, avvalo, insoniyat madaniyatini o'zlashtirish jarayonida faol bilim va mehnat faoliyati orqali erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berish kerak, degan fikrni ilgari surdi. Ushbu g'oya asosida ma'lum bir didaktik tizim ishlab chiqildi, unga ko'ra bilimlar "erkin usulda", ya'ni o'qituvchining yordamisiz o'zlashtiriladi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, ma'lum bir tarixiy bosqichda jahonning barcha mamlakatlarida, pedagogik sohada umumiy qonuniyatlar mavjud edi. Ishlab chiqarishning kengayishi bilan insonlarning ijtimoiy harakatchanligini oshirish zarurati yuzaga keldi va ta'lim bunday sharoitga moslashishini talab qildi. Maktab ta'limida bir qator islohotlar amalga oshirildi, ular orqali boshqaruvni markazlashtirish jarayonlari kuchaytirildi. Bepul boshlang'ich ta'lim olish uchun o'qish muddati uzaytirildi.

Boshlang'ich va an'anaviy o'rta daraja o'rtasida o'rta maktab paydo bo'lganligi, sababli, keng ommaga o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyati yaratildi. Maktablarda yangi vazifa - pedagogika tomonidan ilgari surilgan o'qitish usullarini faollashtirish g'oyasini amalga oshirish turardi. Shunday qilib, maktablarda o'quv ishlarini tashkil etishning yangi tizimi amaliyotga joriy qilindi va o'qitishning yangi usullari va shakllari taklif qilindi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiya sohasi bilan bog'liq bir qator muammolar paydo boldi. Ayni paytda, ommaviy madaniyatning keng quloch yoyishi O'zbekiston ta'lim tizimida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirish muammosini yuzaga keltirdi.

Xalqaro miqyosda olib qaraydigan bo'lsak, keyingi davrda Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni demokratlashtirish va diskriminasiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangichayondashuv, ya'ni inklyuziv ta'lim loyihalari ishlab chiqildi.

Binobarin, Konstitutsiyamizning 41-moddasida ham **“Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktabishlaridavlat nazoratidadir”** deb belgilab qo'yilgan¹.

O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan sa'y-harakatlar, erishilayotgan natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham alohida e'tirof etilayotgani diqqatga sazovor. Albatta, bunda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq qilinayotgan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi va boshqa muhim huquqiy hujjatlar dasturilamal bo'lmoqda. Bu mustahkam huquqiy asos kelajagimiz vorislariga

zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, iqtidori va iste'dodini yuzaga chiqarish, ularni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash imkonini bermoqda.

Yosh avlodga jahon talablari darajasida zamonaviy ta'lim-tarbiya berish, ilg'or o'qitish uslublarini joriy etish, yangi ilm dargohlari faoliyatini yo'lga qo'yish, qisqacha aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazish bugungi islohotlardan ko'zda tutilgan pirovard maqsaddir. Qolaversa, bugungi kunda malakali professor-o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va tajribasini oshirish, pirovardidayosh avlodni hartomonlama yetuk qilib tarbiyalash hayotiyzaruratga aylangan.

Shu ma'noda Prezidentimizning 2015 yil 12 iyunda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada g'oyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki ushbu farmon yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni bugungi kun talablariga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirishga qaratilgan.

Farmonda, xususan, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida ularning qonunchilik normalari, nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quvjarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganishi alohida qayd etilgan. Oliy ta'lim sohasida oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha mutlaqo yangi, takomillashtirilgan tizim joriy qilindi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'qituvchisi malaka oshirdi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda 11 milliondan ziyod kishi internetdan muntazam foydalanadi. Ularning asosiy qismi o'quvchi-yoshlardir. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida qariyb 4,5 million bola tahsil olmoqda. Sakkiz yildan oshdiki, barcha maktablar yagona Ziyonet tarmog'iga ulangan. Mazkur tarmoq Uz domenidagi eng yirik axborot-ta'lim resursi hisoblanadi. Unda yoshlar uchun foydali va ahamiyatli axborot manbalari, darslik va o'quv qo'llanmalar, turli sohalarga doir adabiyotlar, media mahsulotlar, multimedia vositalari, ta'lim maqsadida foydalaniladigan bir qator interfaolxizmatlar jamlangan.

Shu sabab, o'qituvchilarning global internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi, oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirishi kabi zamonaviy talablar qo'yilmoqda. Bu esa, o'qituvchidan hamo'zustidamuntazamishlashni talab qiladi.

Eng asosiysi, bunday mezonlarning barchasi mamlakatimizda bilimli, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalash, talabalarni eng istiqbolli yo'nalishlardagi tadqiqotlarga jalb qilish uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, o'qituvchilarning amaliy jihatdan chet tillarini bilishi ularning ushbu sohadagi xalqaro ilg'or tajriba va yutuqlardan xabardor bo'lish, samarali tajribalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishini ta'minlaydi. Bu borada

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etish lozim.

Oliy ta'lim yo'nalishida izchil rivojlantirilayotgan xalqaro hamkorlik samarasida O'zbekistonda xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtlarining oltita, jumladan, Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetlari, Singapur menejmentirivojlantirish institutining filiallari faoliyat yuritmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilganidek, ta'limning barcha bosqichlari uzviyligiga erishish, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari o'rtasida uslubiy-amaliy hamkorlik, axborot almashish yo'lga qo'yilgani o'ziningyuksak samaralarini berayotir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda oliy ta'limning zamonaviy ikki bosqichli -bakalavriat va magistratura yo'nalishiga o'tilgani tizimdagi eng muhim o'zgarishlardan biridir.

O'zbekistonda maktabgacha va oliy ta'lim ixtiyoriy, boshqa ko'plab mamlakatlar singari erta bolalik va maktab ta'limi majburiydir. Bolalar ham davlat ta'lim muassasalarida, ham xususiy, diniy va boshqa muassasalarda o'qitiladi. Shu bilan birga, chet el fuqarolari uzluksiz ta'lim tizimining xoxlagan biriga qabul qilinadi. Ushbu jihat amaldagi ta'lim siyosati bilan bog'liq. Xususiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish ko'pincha davlat ta'lim muassasasidan ko'ra qiyinroq.

Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishda sportning ham ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'tgan davr mobaynida 1500 dan ortiq zamonaviy sport inshootlari qurildi. Har yili bo'lib o'tadigan, uch bosqichdan iborat (maktab o'quvchilari uchun "Umid nihollari", litsey va kollej o'quvchilari uchun "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalari uchun "Universiada") sport musobaqalari tizimi shakllantirildi. Bu esa yuz minglab bolalar, o'smirlar, yigit va qizlarni jismoniy tarbiya va sportgajalbetishimkonini bermoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, birgina o'tganyili 1 ming 668 nafar sportchimiz, jumladan, 567 nafar qizimiz 165 ta xalqaro musobaqada ishtirok etib, 983 ta medalni qo'lga kiritganini, yosh iqtidorli musiqachi va ijrochilarimiz nufuzli xalqaro tanlovlarda 137 ta sovrinli o'ringa sazovor bo'lganini va ularning 76 tasi Gran-privat birinchi o'rin ekanini aytish joiz.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, xalqimiz ongida ta'lim-tarbiya tizimiga nisbatan katta o'zgarishlar paydo bo'ldi, yoshlarimiz o'rtasida esa bilim olishga bo'lgan intilish va qiziqish kuchaydi. Bugun iqtidorli yoshlarimiz yurtimizdagi yangi, eng zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritayotgan tarmoqlarda murakkab texnologiyalarni boshqarmoqda, ilm-fan, madaniyat, sport sohalarida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritmoqda. Bu ham bo'lsa – davlatimiz rahbari va hukumatimizning zamon bilan hamnafas ish yuritishi, ta'lim-tarbiya tizimiga bo'lgan beqiyos g'amxo'rligiva keng ko'lamli ta'lim islohotlari jarayoniga alohida e'tibor berib kelayotganligining samarasidir. Zotan, har bir mamlakatning buguni va kelajagi, tom ma'noda, ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani, yosh avlodni tarbiyalashuchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

References:

1. Mirziyoev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston, 2019, 29-b.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-qism), O'zbekiston, Toshkent, 2018, 25-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-conli qarori. 2017 yil, 20 aprel
4. Karimov I. "Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanalaylik", O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, Toshkent, "O'zbekiston". 2012, 72-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014. B.15
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T., 2020 y.
7. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun.T.,2019 y.
8. Muhammadjonov O. Bola huquqlari: xalqaro va milliy mezonlar // Adolat, 2015 yil 12 iyun. №25 (1036)
9. Xalikulova H. O'zbekistonda inklyuziv ta'limini rivojlantirish borasida xalqaro hamkorlik (1996-2014 yillar misolida) // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2015. №2(70). B.39
10. Kurbanova U.U. Trends in the development of pedagogical ideas in Uzbekistan in the years of independence.// International Journal of Applied Research 2020; 6(5): 90-94
11. Нажмиддинова Г.Н, Курбонова У.У. Великие мыслители Востока об обязанностях родителей по воспитанию детей // - Чита, 2013. - №4. - С. 582-584